

INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA 5-6 SINIF O'QUVCHILARINING TARIXIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Kodirova Nigora Shaydullayevna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada 5-6 sinf o'quvchilarining tarixiy tafakkurini o'rganishga doir ilmiy yondashuvlar qiyosiy tadqiq qilingan. Shuningdek, tarixiy tafakkur shakllanishidagi ma'naviy-ijtimoiy omillar, innovatsion ta'limning ta'sir doirasi ochib berilgan. 5-6 sinflarda tarix ta'limining zamonaviy innovatsion konsepsiyasi, O'zbekiston tarixini o'rganishdagi ilmiy, metodologik masalalar muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: Maktab, tarixiy tafakkur, innovatsiya, o'qitish, texnologiya, ta'lim, dars.

Introduction

KIRISH

O'zbek xalqining ko'p asrlilik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy qadriyat hamda merosini o'rganish, undan umumiy va bebaho mulk sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda bunday jarayon "Ma'naviy-madaniy hayot ta'lim tarbiya, madaniy meros, tarixiy tajriba, diniy, axloqiy, ma'rifiy qarashlar, turmush tarzi, rang-barang munosabatlar, ilm-fan, xalq bayramlari, sayllari, tomoshalari vaudumlari, san'at, adabiyot kabi sohalarni o'z ichiga qamrab oladi. Xalqning, millatning o'ziga xos etnik xususiyatlari, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi ham aslida ana shu ma'naviy-madaniy qadriyatlar bilan o'lchanadi" [1].

2021 yil 19-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan vidioseloktor yig'ilishida davlatimiz rahbari "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy tasiri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishgan o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur" degan fikrlari vazifaning qanchalik dolzarb ekanligini isbotlab beradi. Mamlakatimizda milliy ma'naviyatini rivojlantirish, milliy til va madaniyatni taraqqiy ettirish, o'z-o'zini anglash, milliy his-tuyg'ular, g'urur, vatanparvarlikni kamol toptirish va mustahkamlash bilan ma'naviy xavfsizlikni mazmun, mohiyatini konkretlashtirish barkamol avlod tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'lib ularga do'stlik, mehmondo'stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy teranlik, tadbirkorlik, fazilatlilik, saxiylik, xushmuomalalilik, jamoa ichida o'zini tuta bilishlik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'llik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlilik, shirinso'zlik, tashabbuskorlik, ona-yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, oru-nomuslilik, to'g'rilik, rejalilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-ona va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g'urur, mustaqillikni qadrlash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy, ma'naviy-axloqiy

fazilatlar kiradi. Bulardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud ekan.

Mamlakatimizga turli yo'llar bilan suqilib kirib yoshlar onggini zaharlashga urinayotgan "G'arb madaniyati" namunalari va aqidaparastlik, ekstrimistik g'oyalarning mazmuni mohiyatini tug'ri tushuntirish, mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Har bir yosh avlod o'zining tug'ilib o'sgan mamlakatini sevib ardoqlashi, himoyalashi, qadriyatlarini unutmastligi va unga hurmat bilan munosabatda bo'lishima'naviyatimizi ximoya qilish omilidir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, tarix millatning haqiqiy tarbiyasiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda, ma'naviy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda. "...Xalqimiz taqdirida butunlay yangi tarixiy davr boshlandi. Bu davr mustaqillik, istiqloq g'oyalari orqali endigina shakllanayotgan sog'lom, har tomonlama hayotiy va inson manfaatlariga xizmat qiladigan g'oyalar davri sifatida dunyoga kelmoqda. Ana shu milliy istiqloq, milliy g'oya, milliy falsafa shaklida endigina paydo bo'layotgan munosabatlarimiz butuno'tmishimizni yangicha nazar bilan baholash, uni qaytadan ko'rib chiqish, shu asosda tarix xotirasi va tarixiy tafakkurni shakllantirishning kuchli bir ichki ehtiyoj darajasiga ko'tarilmoqda." [2]

ADABIYOTLAR SHARHI

Tarixiy bilishni va tarixiy tafakkur muammolarini bir mafkura doirasida hal qilib bo'lmaydi. Biron-bir tarix tadqiqotchisi, tarixga qanchalik real ob'ektiv yondashmasin bari-bir qadriyatli yondoshmasdan iloji yo'q bunga misol qilib quyidagi misolni ko'rsatish mumkin: "Tarixchi o'z ijodiy faoliyatida qadriyatli va bahoviy tushunchalardan foydalanib o'tmish haqida hukm chiqaradi".

Har qanday zulm ko'p narsani yo'q qilishi mumkin, lekin xalqning tarixiy xotirasini yo'q qilib bo'lmaydi. Chunki tarixiy xotira ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarning kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo'lishi, eslanishi, qadrlanishidan iboratdir. Inson o'zining tarixiy xotirasiga ega bo'lmasdan turib, hayotda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarning mohiyatini tushunib yetolmaydi. O'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Tarix esa inson uchun buyuk xotiravazifasini bajaradi.

Agar o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'qitish metodlarini tanlash muammosiga Y.A.Komenskiy, I.Pestalossi, A.Disterveg, K.D.Ushinskiylar ma'lum darajada e'tibor berishgandi. Y.A.Komenskiy o'qitish metodlariga g'oyat katta ahamiyat berib, agarda bilim cho'qqilariga juda ozchilik qiyinchilik, ming azob bilan yetib borar ekan, buning sababi insoniyat erisha olmaydigan biror narsaning mavjudligida emas, balki metodlarning chalkashligidadir, deb hisoblagandi. U bilish qobiliyatini yuzaga chiqara oladigan usullarga rioya qilishni va ularni sharoitlarga qarab qo'llashni talab etgandi.

Respublikamizda tarix fanini falsafiy yondashuv asosida tadbiq qilish N. Jo'raev tomonidan taqdim qilingan. Tarix fanini o'qitishning uslubibo'yicha esa T.Toshpo'latov va Y.G'afforovlar tomonidan taqdim qilingan o'quv-uslubiy, didaktik ta'minot ham alohida ahamiyatga ega.

TADDIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Hammamizga ma'lumki, so'nggi yillarda barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasiga ham tubdan o'zgarishlar, yangiliklar shiddat bilan kirib keldi. O'zbekistonda ta'lim tizimini yanada

takomillashtirish va olib borilayotgan islohotlar zahirida vatanparvar, vijdonli, fidoiy, insoniylikni o'zida aks ettira oladigan yuksak ma'naviyatli kadrlarni yetishtirish yotadi. Ta'lim tizimidagi eng asosiy dolzarb masala, o'quvchilarda mustaqil fikrlarini shakllantirish va rivojlantirish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash va ularni buyuk inson qilib yetishtirishdir. Pedagogning bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishni shakllantirishdir. Yangi ta'lim tizimida o'quvchi yoshlarni shaxs sifatida kamol toptirish, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalari zarurligi uqtirilgan.

Tarix fanining maktab kursi uchta vazifani bajarishga qaratilgan:

- o'quvchilarga tarixiy bilimlarning asoslarini berish, ularning chuqurligi va mustahkamligini ta'minlash;
- o'quvchilarda tarixni ilmiy tushunishning shakllanishi va milliy tarix,
- xorijiy mamlakatlar va xalqlar tarixiga hurmat munosabatida bo'lishni ta'minlashga;
- o'quvchilarda tarixiy ong, tarixiy xotira, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va o'quvchilarning bilimlarini mustaqil o'zlashtirish va qo'llashga o'rgatishdir.

O'quvchilarning tarixiy tafakkuri ularning umumiy dunyoqarashining shakllanishi bilan birgalikda boradi. O'quvchilarning dunyoqarashida tarixiy tafakkurning rivojlanishi uning amaliy faolligini ta'minlaydi. Ya'ni, tarixan dunyoda mavjud bo'lgan fan-texnika yangiliklarini o'zlashtirishi bilan o'z faoliyatida yangilikka intilish o'zida yaratuvchanlik faoliyatini shakllantiradi. O'quvchi tarix fanidan bilimlar asosini o'zlashtirganda millatimiz va boshqa xalqlarning o'tmish, kecha va bugungi taraqqiyoti to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi. Tarix ta'limi har bir odamga etnomilliy, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarini o'zlashtirishga yordam berishi lozim. Bu o'quvchinishaxs, fuqaro, inson sifatida shakllanishiga asos bo'ladi. O'quvchilar O'zbekiston tarixi fanini o'rganish davomida umuminsoniy qadriyatlarini o'zlashtirib boradi. Tarix darslari o'quvchilarga tarixiy bilimlarni yetkazib beruvchi vositagina emas, balki ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanib borishlarini ta'minlovchi kuchli ta'sirga ega bo'lgan omil hamdir. Maktab tarix ta'limining zamonaviy konsepsiyasi tarixni tizimli o'rganishni saqlab qoladi. Lekin tarix uning tamoyillari asosida o'rganiladi. Tarix o'quvfani o'rta maktabda gumanitar fanlarning rivojlanishi uchun metodologik shart-sharoit yaratadi. Tarix fanining ma'lumotlari, tushunchalari, atamalari va tamoyillari boshqa fanlarda ham keng qo'llaniladi, o'z navbatida tarix fanida boshqa fanlardagi tushuncha, atamalardan foydalaniladi. Tarix fani boshqa ijtimoiy gumanitar fanlardan farq qiladi va alohida mavqega ega. Albatta u boshqa ijtimoiy fanlar, falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, siyosatshunoslik va boshqalar bilan aloqada bo'ladi. Hozirgi kunda tarix fanining fanda e'tirof etilgan xilma-xil nazariyasi va konsepsiyalari ko'pchilik hukmiga havola qilinmoqda. O'qituvchi tarix faniga tegishli barcha e'tiborga molik nazariya va konsepsiyalarni izchil o'rganishi va tadqiqot o'quv jarayoniga samarali tadbiriq etishi lozim. Tarix o'qituvchisi tarixiy nazariya va konsepsiyalardan har bir mavzuni o'rganishda qo'llashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tegishli nazariya mavzu bilan mos bo'lishi uchun uni o'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida tahlil qilishi va oqilona foydalanish zarur. Shu bilan birga, mavzudagi tarixiy ma'lumot, dalillar bilan nazariyaning o'rtasidagi muvozanat uyg'un saqlanib qolishiga e'tibor beriladi.

Innovatsion ta'lim muhitida tarix fanlarining o'qitish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo ekanligi, tashkiliy masalalarini hal qilish hamda takomillashtirishning mavjud holatini

kognitiv-tahliliy baholash masalalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalardandir. Global axborotlashuv, innovatsion ta'lim muhitining shakllanishi o'z navbatida ilm-fan, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish sohalarida ro'y berayotgan inqilobiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda o'qitish tizimini takomillashtirish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqdi. Davr talabi tarix fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirishni ham taqozo etmoqda.

Barcha fanlar kabi "Tarix o'qitish metodikasi" fani ham muayyan vazifalarni hal qiladi. O'quv predmeti sifatida hal etadigan vazifalari xususida to'xtalishda "Tarix o'qitish metodikasi" fanining, birinchidan, talabalar, ikkinchidan, amaliyotchi-o'qituvchilar uchun xizmat qilishini nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Shu bois vazifalarni belgilashda ham o'quv predmetining sub'ektini inobatga olish maqsadga muvofiqdir [3].

Tarix (yoki tarix fanlarini) o'qitish metodikasi – talabalarni ta'limmuassasalarida pedagogik faoliyat yuritishga kognitiv, empirik va psixologik jihatdan tayyorlash, ularda metodik kompetensiyani rivojlantirish, tarix fanlarini o'qitishning sifat va samaradorligini ta'minlovchi o'quv fani. Ushbu fan mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib, tarix fani o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan kompetentlik sifatleri – kasbiy bilimdonlik, tarixiy jarayonlarga xolis baho berish; tarixiy materiallar (qo'lyozmalar, arxiv materiallari, me'yoriy hujjatlar, memuar asarlar, solnoma (yilnoma)lar, tarixiy mavzudagi monografik asarlar va ilmiy maqolalar, "xalq arxivi", "og'zaki tarix") hamda o'qitish vositalari (o'quv adabiyotlari, turli tarixiy davrlarga oid xaritalar, tarixiy atamalar lug'atlari, muzey eksponatlari, arxeologik buyumlar, milliy-madaniy yodgorliklar) bilan ishlay olish; tahlil va sintez qilish qobiliyati, tanqidiy tafakkur, kuchli xotira, axborot madaniyati, huquqiy ong va professional obro'ga egalik; izlanuvchanlik, kreativlik; ijtimoiy faollik; kasbiy vaziyatlarga moslasha olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi [4].

Innovatsion ta'lim muhitida tarix o'qitish metodikasini takomillashtirish – tizimda kechayotgan tub o'zgarishlar, xorijiy va milliy pedagogikaning zamonaviy yutuqlarini inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalarida tarix fanlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining sifatlari, samarali tashkil etilishini ta'minlovchi metodik ta'minotni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyat natijasidir [5].

Innovatsion ta'lim muhitida tarix o'qitish metodikasini takomillashtirishda o'qitishning samarali kechishiga yordam beradigan innovatsion shakl, metod, vosita va texnologiyalarini tanlash, ularni boyitish maqsadi ko'zlanadi. Ushbu maqsadga ko'ra tarix darslarini qiziqarli, jonli, samarali o'qitishni ta'minlovchi vazifalarni belgilab olish lozim. Bu vazifalarga ta'lim shakllari, metodlari, vositalari va texnologiyalarini tanlash, ular yordamida didaktik ishlanmalarni tayyorlash asosida metodik ta'minotni shakllantirish, shakllantirilgan metodik ta'minotni o'quv amaliyotiga joriy qilish, amaliyotga tatbiq qilingan metodik ta'minot yordamida talabalarning o'zlashtirganlik darajasini tashxislash va baholash kabilarni kiritish mumkin.

"Innovasiya" atamasi tushunchasi aniq, ravshan tushuncha bo'lsada, uning tarkibida yangilikni yaratish va uni tatbiq etish tushunchalari mavjud. Bizning mamlakatimizda pedagogik innovasiyani yaratilishi va rivojlanishi keng jamoatchi pedagoglar harakati bilan maktablarning tez rivojlanishi, modernizasiya qilinishi, standartlarni takomillashtirilishi va dasturlarni yangilanishiga bo'lgan katta ehtiyoj tug'ildi. Yangiliklarni izlash, yaratish, qo'llash ishlari

jadallashib bordi. Shu sababli yangi bilimlarga bo'lgan talab, "yangilik", "innovasiya" va "innovation jarayonlar" paydo bo'ldi va u tushunchalarni yanada chuqurroq o'rganish, anglash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Shunday qilib, pedagogik innovatsiyalar deganda biz faqatgina vosita, metod, usul, texnologiya va hokazo emas, balki ularni yaratish, o'zlashtirish va amalda qo'llash, baholashni hamda boshqarishni tushunamiz. Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsiyalarning qo'llanilishi bir jihatdan ta'lim jarayonini doimiy takomillashtirish zarurligidan iborat bulgan pedagogik amaliyotning obyektiv ehtiyojlariga bog'liq bo'lgan, ikkinchi jihatdan esa ularni qo'llanish samaradorligi pedagoglarning subyektiv sifatlariga, ularning pedagogik innovatsiyalarning obyektiv zarurligini anglaganlik darajasiga bog'liq.

Demak, pedagogik innovatsiyalarni joriy qilish – bu pedagogik yangiliklarni yaratish ularni pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirilishi, amalda qo'llanilishi, baxolanishi hamda boshqarish jarayoni va natijasidir.

Zamonaviy o'qituvchi innovatsion texnologiyalarni yaratish va ularni amaliyotga tadbiiq qilish jarayonini bevosita ijrochisidir.

Asoslovchi tajriba davrida tanlangan muammoni nazariy tahlil qilish, talabalarning o'quv-bilish, pedagoglarning kasbiy faoliyati bilan tanishish orqali mavjud sharoitda aynan interfaol metodlar hamda kompyuter dasturlari tarix o'qitish samaradorligini ta'minlay olishiga ishonch hosil qilindi. Shu bois tarix o'qitish sifati hamda samaradorligini ta'minlaydigan omillardan biri sifatida interfaol metodlar hamda kompyuter dasturlari tanlandi.

Pedagog pedagogik jarayonni tashkil etishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olishi zarur. Pedagog o'quvchilar bilan pedagogik muloqot o'rnatish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bu interaktiv dars usullari hisoblanadi. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Buning samaradorligi shundaki, o'quvchilar bir-birini eshitishi, hurmat qilishi, guruh bilan ishlashni, muloqotni, mustaqil fikrlashni, insonparvarlikni o'rganadi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi keyingi paytlarda yanada kengroq tarqaldi. O'quv jarayoniga texnik vositalarni tadbiiq etish boshlandi. Pedagogik texnologiya bu o'quv jarayonini amalga oshirish mazmunli texnikasidir. Pedagogik texnologiya bu – o'qitishda rejalashtirilgan natijalarga erishish jarayonini tasvirlash, pedagogik jarayonning tashkiliy metodik quroli demakdir.

Pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim amaliyotida 3 ta tartib bilan bir-biriga bog'liq darajalarda ishlatiladi. Bular:

- umumpedagogik (umumdidaktik);
- xususiy metodik;
- lokal (modulli) darajalaridir.

Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja: umumpedagogik texnologiya ta'limning ma'lum bosqichida, o'quv yurtida yaxlit ta'lim jarayonini ifoda etadi. Bu yerda pedagogik texnologiya pedagogik tizimga o'xshashdir: unga o'qitishning maqsadlari, mazmuni, vosita va metodlari to'plami, faoliyat ob'ekti va sub'ekti algoritmi kiradi.


Xususiy metodik darajasi: xususiy metodik pedagogik texnologiya

«xususiy metodik» ko‘rinishida qo‘llaniladi, ya’ni bir fan, sinf o‘qituvchi doirasida o‘qitish va tarbiyalash, ma’lum mazmunini amalga oshirish uchun metodlar va vositalar to‘plami sifatida ishlatiladi.

Lokal (modulli) darajasi: lokal texnologiya o‘quv-tarbiyaviy jarayonning alohida qismlari, xususiy didaktik va tarbiyaviy masalalarni hal etish texnologiyasidan (alohida turdagi faoliyat, tushunchalar shakllantirish, alohida shaxsiy sifatlarni tarbiyalash, dars texnologiyasi, materiallarni takrorlash va tekshirish texnologiyasi, mustaqil ishlar texnologiyasi va boshqalar) iborat.

Pedagogikada innovasiya, innovasion faoliyat, innovasion pedagogika, ta’limda innovasion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60 – yillarida dastlab AQSh va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida “ta’lim texnologiyasi” tushunchasi e’tirof etilgan vaqtda paydo bo‘ldi. O‘sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovasiyalar markazi va instituti tashkil etildi. Bu tushunchalarning paydo bo‘lishi va innovasion ta’lim nazariyasining yaratilishi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu tushunchalar ta’lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga kiritish orqali ta’lim tizimini isloh qilish, tizim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta’minlash zaruriyati tug‘ildi. Bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta’lim jarayonida bolaga do‘stona munosabatni shakllantirish va urinish natijasida vujudga keladi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o‘tgan asrning 80 – yillari ikkinchi yarmida pedagogik faoliyat bu ijodiy jarayon va pedagogik innovasiyalar majmui degan yangi ilmiy yo‘nalish tarkib topdi. Bu esa o‘qituvchining innovasion faoliyatini shakllanish jarayonini tahlil qilib borish imkonini berdi.

Tarix o‘qitish metodikasini takomillashtirish muayyan tamoyillar ustuvorligi asosida kechadi. Muammoni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish umumdidaktik tamoyillar (ta’limning barcha uchun ochiqqligi, fanlararo aloqadorlik, o‘qitish jarayonida talabalarning yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olish, individual yondashish va boshqalar) bilan bir qatorda quyidagi tamoyillar tarix o‘qitish metodikasini takomillashtirishda ahamiyatli ekanianiqlandi [6].



1-rasm. Tarixni o‘qitish metodikasini takomillashtirishning ustuvor tamoyillari

Shuningdek tadqiqotni olib borishda tanlangan muammoning umumiy mohiyatidan kelib chiqqan holda tarix o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayonining modeli yaratildi.

“O‘zbekistonda davlatchilik tarixi” fani misolida tarix fanlarini o‘qitish metodikasining mavjud

holatini o'rganish va tahlil qilish natijasidashunday xulosalarga kelindi:

- tegishli fan bo'yicha yaratilgan fan va o'quv dasturi, ma'ruza matni, o'quvhamda metodik qo'llanmalar, darslik kabi o'quv adabiyotlari yangi avlod adabiyotlarini yaratish, shuningdek, respublikada uchinchi renesseansni yuzaga keltirish borasidagi davlat siyosati talablariga muvofiq takomillashtirilishi zarur;
- fan pedagoglarining o'qitish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan maqsadli va ijodiy foydalanish kompetentligini rivojlantirish talab qilinadi;
- pedagoglar tomonidan innovatsion ta'lim texnologiyalarining to'g'ri tanlanishi o'qitish sifatini yaxshilash bilan birga talabalarning o'quv-bilish faolligini rivojlantirishga yordam beradi.

Globalashuv davri barcha sohalarda axborotlarning tezkor almashinuvi ro'y berishi uchun sharoit yaratmoqda. Axborotlarning tezkor uzatilishi, qisqa muddatda keng ko'lamga yoyilishida kompyuter texnologiyasining o'rni va roli beqiyos. Kompyuter texnologiyasining texnik, texnologik va funksional imkoniyatlari ularning ta'lim jarayonining samarali kechishiga yordam beradigan muayyan kompyuter dasturlariga egaligi asosida namoyon bo'ladi. Pedagogik va ilmiy-pedagogik faoliyatni olib borish jarayonida kompyuter texnologiyasining mavjud imkoniyatlarini o'rganish asosida "O'zbekistonda davlatchilik tarixi" fanini kompyuter texnologiyasining Power Point, Hot Potatoes, MyTestX Tests dasturlari, interfaol plakatlar o'quv jarayonini samarali tashkil etish, talabalar tomonidan o'quv materiallarining puxta o'zlashtirilishiga erishish, ularning o'quv faoliyatini nazorat qilish, bilim vamaalaka darajasini baholashga xizmat qilishi tabiiy [7].

"O'zbekistonda davlatchilik tarixi" fani (masalan, "Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji" mavzusi) bo'yicha tayyorlangan taqdimotlar quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'ladi: o'rganiladigan mavzu hamda mashg'ulotni tashkil etadigan pedagog haqida ma'lumot, o'quv rejasi, tayanch tushunchalar, o'quv rejasiga oid ma'lumotlar, nazorat savollari, o'quv topshiriqlari, test topshiriqlari kabilar [8].

Taqdimotlarni tayyorlashga matnli axborotlardan imkon qadar foydalanmaslik, matnli axborotlarni vizual shaklga o'tkazish, o'quv axborotlarni yetkazishda pedagogning auditoriya bilan interfaol muloqotini ta'minlash, o'quv materialining muammoli xarakter kasb etishi, nazorat savollarini kamaytirish hisobiga o'yin texnologiyalari – didaktik o'yinlar yordamida talabalarning o'quv materialini dastlabki o'zlashtirish darajasini baholash kabi shartlar asosida erishiladi.

Shuningdek "Amir Temur va temuriylar davrida davlatchilik taraqqiyoti" mavzusidagi seminar mashg'ulotida Hot Potatoes dasturi yordamida "Amir Temur qo'shinining tarkibi" va "Amir Temur davlatining soliq tizimi" mavzularda didaktik o'yin elementlaridan biri bo'lgan krossvordlar tayyorlash mumkin. Ilmiy-pedagogik tajriba jarayonida, shu bilan birga, "O'zbekistonda davlatchilik tarixi" fani bo'yicha nostandart testlar tuzilib, ulardan sinov va imtihonlarni tashkil etishda ham foydalanilish mumkin. Nostandart testlar o'nta turdagi topshiriq (bir tanlovli javobni topish, ko'p tanlovli javobni topish, izchillik tartibini o'rnatish, o'zaro muvofiqlikni topish, tasdiqning to'g'riligi yoki noto'g'riligini ko'rsatish, kerakli ta'rifni ifodalash, raqam (raqamlar) yordamida to'g'ri joylashtirish, tasvirdan zarur o'rinni topish,

harflar tartibini o'zgartirish hamda tushirib qoldirilgan o'rinlarni to'ldirishga doir)dan iborat bo'lishi mumkin. [9].

Tajriba-sinov ishlarini olib borish davrida "Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji" hamda "Ahamoniylar davlati boshqaruvi (mil.avv. VI-IV asrlar)" mavzularida interfaol plakatlar ham tayyorlash mumkin. Ularda ta'lim jarayonida foydalanish pedagog va talabalarning mehnatini ham osonlashtirish bilan birga ular o'rtasida interfaol muloqotni yuzaga keltirishga yordam beradi.

Asoslovchi tajriba davrida tanlangan muammoni nazariy tahlil qilish, talabalarning o'quv-bilish, pedagoglarning kasbiy faoliyati bilan tanishish orqali mavjud sharoitda aynan interfaol metodlar hamda kompyuter dasturlari tarix o'qitish samaradorligini ta'minlay olishiga ishonch hosil qilinadi. Bunday jarayonlar tarix fanlarini o'qitish sifati hamda samaradorligini ta'minlaydigan omillardan biri sifatida ajralib turadi.

NATIJALAR

Mamlakatimizda tarix fanini rivojlantirish sohasidagi ishlar kompleks va tizimli davom ettirilmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tarixini o'rganishda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu yo'nalishda quyidagi ilmiy, metodologik masalalar asosiy o'rin tutadi:

1. Tarixni o'rganishning metodologik asoslarini rivojlantirish. Bunday tarix metodikasi bo'yicha mavjud turli xil ilmiy konsepsiyalarni o'rganish orqali ulardan foydalanish.
2. Tarixni o'rganish uchun ishlab chiqilgan yagona konsepsiyani amalga oshirish.
3. O'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim uchun yaratilayotgan darsliklarni yangi avlodini ishlab chiqishda yagona konsepsiyaga tayanish.
4. Tarix fanining dolzarb muammolarini o'rganishda turli fanlarning yutuqlari, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda klaster modeli asosidagi samarali hamkorlik faoliyatini tashkil etish.
5. Tarix fanini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlarni o'tkazish va fanning dolzarb muammolarini o'rganish jarayonida erishilganyutuqlarni monitoringini olib borish va hokazo.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, tarixga munosabat va tarixni anglash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, tarixiy tafakkur va tarixiy bilish orqali barcha islohotlarga qodir bo'lgan shaxs va jamiyatni barpo etish uchun tarixni falsafiy tomonlama ham mushohada etish o'ta zarurdir. Tariximizning yangicha fikrlaydigan kishilar ayniqsa bo'lajak mutaxassislarni tutgan o'rni va mazkur masalalarga etibor berish lozimdir. Hozirgi kunda tarix fanining metodik muammolaridan biri maktabda tarix ta'limini zamonga mos, hozirgi taraqqiyot talablariga javob beradigan konsepsiyasini shakllantirish va amalga oshirishdir. Maktab tarix ta'limi o'zining uzoq yillar davomida tanlangan boy tajribasiga ega. To'plangan tajriba hozirgi murakkab davrda tarix o'qitishda muhim o'rin tutadi, undan unumli foydalanish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. T.: O'zbekiston, 2017, -B. 119.
2. Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent.:Ma'naviyat. 2016. 125 b.
3. Ibragimov A. Biz-kim o'zbeklar. -T.: Sharq,. 2019. –B.289.
4. Abduraxmanova J. N. (2020). Innovatsion tajriba maydoni – “maktab– laboratoriya”ning ta'lim tizimidagi o'rni. Mug'allim hem o'zliksiz bilimlendiri. (Issue 1) –B. 22-26.
5. Aliboev T.Ch. Innovatsion ta'lim muhitida o'quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish (“Texnologiya” fani misolida): Ped.fanl.bo'yicha fals.dokt. (DPh) ... dis. – T.: 2020. – 125-b.
6. Boymirzaev X. Tarix o'qitish metodikasi: nazariy mohiyati va amaliy asoslari (“O'zbekistonda davlatchilik tarixi” fani misolida). – Namangan: NamDU nashriyoti, 2021. – 49-56-b.
7. Pedagogika. Qisqacha izohli lug'at / O'.Asqarova, M.Usmonboeva, X.Raxmatova, F.Ehsonova. – Namangan: Namangan DU, 2014. – 311-b.
8. Usmonboeva M., Aripova M., Mo'minova D. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. – T.: “Lesson Press” nashriyoti, 2019. – 5-8-b.
9. Xojiev T.N. Modernizatsiya nazariyalari evolyusiyasining falsafiy- konseptual tahlili. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi - Toshkent: O'zbekiston, 2019. B. 118.
10. www.ziyonet.uz